

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Mualliflar: **To‘rayeva Oqila Akmal qizi**

To‘xtamurodova Muxlisa Baxtiyor qizi

Instituti: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

E-mail: turayevaoqila75@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi zamonaviy ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan STEAM yondashuvining nazariy asoslari, uning boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi ahamiyati hamda o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, fanlararo integratsiya orqali bilimlarni hayotiy ko‘nikmalar bilan bog‘lash masalalari ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, STEAM, kreativ fikrlash, innovatsion ta’lim, metodika, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya.

Abstract: This thesis analyzes the theoretical foundations of the STEAM approach, which is widely used in the modern education system, its significance in primary education, and its role in developing students’ creative and critical thinking skills. Furthermore, the study highlights the importance of interdisciplinary integration in linking knowledge with real-life skills.

Keywords: Integration, STEAM, creative thinking, innovative education,

Kirish. Bugungi rivojlangan davrda ta’lim tizimining oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. An’anaviy bilim berish usullari o‘rnini zamonaviy innovatsion va integratsiyalashgan yondashuvlar egallamoqda. Shunday yondashuvlardan biri sifatida STEAMni olishimiz mumkin. STEAM(Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) bo‘lib, u o‘quvchilarning nafaqat bilim olish, balki uni amaliyotda qo‘llash, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. STEAM yondashuvi besh asosiy yo‘nalish bilan olib boriladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika. Ushbu yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, unda fanlar alohida emas, balki o‘zaro integratsiyalashgan holda o‘rgatiladi. Natijada o‘quvchilar real hayotiy muammolarni kompleks yondashuv asosida hal qilishga o‘rganadilar.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida STEAM yondashuvini qo‘llash o‘quvchilarning:

1. mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
2. mantiqiy va tanqidiy tafakkurni shakllantiradi;
3. ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi;
4. jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, “Toza suv qanday olinadi?” mavzusini STEAM asosida o‘rganishda o‘quvchilar suvni tozalash tajribalarini o‘tkazish (Science), filtr qurilmasini loyihalash (Engineering), jarayonni chizma va dizayn orqali ifodalash (Art), hisob-kitoblarni amalga oshirish (Mathematics) va texnologik vositalardan foydalanish (Technology) orqali kompleks bilimga ega bo‘ladilar. Shuningdek, STEAM yondashuvi o‘yin texnologiyalari, loyiha asosida o‘qitish va muammoli ta‘lim metodlari bilan uyg‘unlashgan holda yanada samarali natija beradi. Bu ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muhim bo‘lib, ular bilimni o‘yin va amaliy faoliyat orqali tezroq o‘zlashtiradilar va fanlarga bo‘lgan qiziqishi ortib boradi. Shu bilan birga, STEAM yondashuvi inkluziv ta‘limni qo‘llab-quvvatlashda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki turli qobiliyatga ega o‘quvchilar o‘z kuchli tomonlari orqali faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta‘limda STEAM yondashuvini samarali qo‘llash uchun quyidagi metodik shartlar muhim hisoblanadi:

- o‘quv jarayonini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish;
- fanlararo integratsiyani rejalashtirish;
- amaliy mashg‘ulotlar va tajribalarni ko‘paytirish;
- o‘yin texnologiyalari va interaktiv metodlardan foydalanish.

Natijalar va muhokama. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning fanlarga qiziqishini oshiradi, ularning o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi va real hayotiy vaziyatlarda bilimlardan to'g'ri foydalanish kompetensiyalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, bu yondashuv o'quvchilarda XXI asr ko'nikmasi bo'lgan —4K(muammo yechish, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlikni)ni ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi zamonaviy ta'lim tizimining muhim komponenti bo'lib, u o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ushbu yondashuvni samarali qo'llash orqali kelajakda raqobatbardosh, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash mumkin. Shu bois, pedagoglar STEAM metodikasini chuqur o'rganib, amaliyotga keng joriy etishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yakman, Georgette (2008). STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. Virginia Polytechnic Institute and State University.
2. Bequette, James W., & Bequette, Marjorie B. (2012). A Place for Art and Design Education in the STEM Conversation. Art Education Journal.
3. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov, A. (2017). Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Tolipov O', Usmonboyeva M. (2015). Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2021). Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. Toshkent.
6. Qodirov, B. (2018). Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
7. Xoliqov, A. (2019). Pedagogik mahorat. Toshkent.
8. Yo'ldoshev, J., Usmonov, S. (2016). Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent.
9. Matchonov, S. (2020). Boshlang'ich ta'limda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent.
10. Nishonova, Z. (2017). Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. Toshkent.